

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XOJALIGI FANLARI
BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.05/30.09.2022.QX.152.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

AXMEDOVA MUNISA ABDIMAJITOVNA

**QOVUN, TARVUZ URUG‘LARI VA O‘SIMLIKLARIDA PREPARATLAR
KOMPLEKSINI QO‘LLASHNING HOSILDORLIKKA TA‘SIRI**

06.01.06- Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Axmedova Munisa Abdimajitovna

Qovun, tarvuz urug‘lari va o‘simliklarida preparatlar kompleksini qo‘llashning
hosildorlikka ta’siri..... 3

Ахмедова Муниса Абдимажитовна

Установление влияния применения комплекса препаратов на семенах и
растениях дыни и арбуза на их урожайность 21

Akhmedova Munisa Abdimazhitovna

The effect of applying a complex of preparations on the seeds and plants of
melon and watermelon on yield..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XOJALIGI FANLARI
BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI**
PhD.05/30.09.2022.QX.152.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

AXMEDOVA MUNISA ABDIMAJITOVNA

**QOVUN, TARVUZ URUG‘LARI VA O‘SIMLIKLARIDA PREPARATLAR
KOMPLEKSINI QO‘LLASHNING HOSILDORLIKKA TA‘SIRI**

06.01.06 – Sabzavotchilik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.4.PhD/Qx1527 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz tilida (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sabzavotilm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Dusmuratova Saodat Ismailovna qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Nurmatov Norqobil Jo'raevich qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) Rustamov Behzod Abdumalikovich qishloq xo'jaligi bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10 dekabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy ko'chasi, 2-uy. Tel.:(+99871) 226-85-03; faks: (+99871) 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz.; Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 10/2025-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko'ksaroy ko'chasi, 2-uy. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 226-85-03).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil _____ № _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.A.Nizomov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

F.F.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

A.J.Shokirov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda poliz ekinlari 4,1mln. ga maydonda yetishtiriladi, yalpi hosil 133,5 mln.t. tashkil etadi (2024 y.). Poliz mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy davlatlar AQSH, Braziliya, Marokash, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Eron, Ispaniya, Rossiya va b. hisoblanadi¹. O‘zbekiston Respublikasida 2024 yilda poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi 2,6 mln.t. bo‘lib, 2023-yilga nisbatan 3,2% o‘shish qayd etilgan. Dunyo bozoriga 74,7 mln. dollarlik 164,2 ming t. qovun va tarvuz mahsulotlari eksport qilingan (2024 y.)².

Jahonda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali dunyo aholisining barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash imkoniyati ortmoqda. Bu borada Germaniya, Italiya, Braziliya, Turkiya, Rossiya va boshqa davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida sabzavot va poliz urug‘larini ekish oldidan turli biologik, kimyoviy va mikroelementlardan foydalanishda ekinlarning kasalliklarga chidamliligi oshishi sababli, yuqori hosil olishni tadbiiq qilganlar. Xitoy, Ukraina, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Indoneziya, Suriya, Rossiya olimlari sabzavot va poliz ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishda ekish oldidan urug‘larga ishlov berish, o‘suv davrida ekologik sof preparatlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berganlar.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi tadqiqotlarida nanotexnologiyalardan foydalanish dunyoda tobora kengayib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, urug‘larga ekishdan oldin ishlov berish orqali baquvvat va sog‘lom nihollar olish, unib chiqish paytida atrof-muhitning salbiy ta‘sirini kamaytirish imkonini bergan. Mikroo‘g‘itlar shaklida o‘suv davrida qo‘llanilgan nanozarrachalar o‘simliklarga faol kirib boradi, fotosintez jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ularning kasalliklarga va noqulay iqlim sharoitlariga chidamliligiga ijobiy ta‘sir etib, hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Bu o‘rinda qovun, tarvuz urug‘lariga ekish oldidan hamda o‘simliklar o‘suv davrida kompleks preparatlarni, nano - va mikrozarrachalarni stimulyatorlar sifatida qo‘llash orqali poliz ekinlari hosildorligini oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni³ hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi⁴ Farmonida qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda jadal rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar ko‘paytirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazish kabi ustuvor vazifalar belgilangan, ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <http://www.fao.org/faostat/foodsecurity>

² <https://gov.uz/oz/agro/news/view/20908>

³ <https://lex.uz/uz/docs/4812412>

⁴ <https://lex.uz/docs/5841063>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Urugʻlarga ekishdan oldin ishlov berish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari bir qancha rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan. Xususan, Braziliyada J.E.S.B.Silva, S.B.Torres, Italiyada Valeria Mancini, Turkiyada P.Adiguzel, Ş.Karabiyik, Rossiya Federatsiyasida V.F.Belik, T.V.Boyeva, Ye.G.Kipayeva, N.Ye.Mashenko, Oʻzbekiston olimlaridan M.X.Aramov, Q.Karimov, S.A.Yunusov, R.A.Xakimov, X.Asqaraliyev, D.K.Rashidova, R.A.Nizomov, X.S.Amirov, S.S.Alimuxamedov, M.U.Xoldorovlar tomonidan sabzavot-poliz urugʻlariga ekishdan oldin biologik, kimyoviy, oʻsishni boshqaruvchi preparatlar, mikroelementlar va nano va mikrozarachalarni qoʻllash boʻyicha tadqiqotlar olib borilgan. Sabzavot-poliz ekinlarining oʻsuv davrida oʻsishni boshqaruvchi vositalar, mikroelementlar, hamda nano va mikrozarachalar bilan (bargidan) oziqlantirish boʻyicha Xitoyda Li Junli va R.Peter, Bangladeshda D.B.Dola, Pokistonda Sh.Raheel, Indoneziya K Sri, Suriyada Dr. Rida Draie, Hindiston Nihar Patel, Rossiya Federatsiyasida V.N.Petrichenko, A.A.Suliman, A.G.Abramov; V.Kreslavski, respublikamizda S.Sh.Rashidova, B.Toʻxtashev, M.U.Xoldorov va S.S.Alimuxamedovlar tomonidan olib borilgan. Mamlakatimizda qovun, tarvuz urugʻlariga ekishdan oldin biologik va kimyoviy zararsizlantiruvchi vositalarni qoʻllashda urugʻlarning unish quvvati va unuvchanligi, oʻsimliklarning oʻsib-rivojlanishi, hosildorligi hamda mevalarning sifat koʻrsatkichlariga taʼsiri yetarlicha oʻrganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy–tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida OʻzR Fan-texnika Agentligi granti QX-A-QX-2018-125 “Poliz ekinlari (qovun, tarvuz) urugʻliklarini kasallik va zararkunandalardan himoya qilishda ekishdan oldin dorilash uchun preparatlarni samarali meʼyorlari va qoʻllash usullarini ishlab chiqish” (2018-2020 y.y.) mavzusidagi amaliy loyihasi hamda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti “Organik dehqonchilik” laboratoriyasining ish dasturidagi «Sabzavot, poliz ekinlaridan organik, ekologik toza mahsulot yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish» vazifasining (2022-2024 yy.) 3 qismiga asosan bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qovun va tarvuz urugʻlari va oʻsimliklariga preparatlar kompleksi bilan ishlov berishning ekinlar oʻsishi, rivojlanishi hamda hosildorligiga va mahsulot sifatiga taʼsirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

turli preparatlar bilan ishlov berilgan qovun va tarvuz urugʻlarining laboratoriya unuvchanligi va unish quvvatini aniqlash;

zararsizlantiruvchi preparatlarning qovun va tarvuz oʻsimliklari oʻsishi, rivojlanishi, hosildorligi va mevalar sifatiga taʼsirini tadqiq etish;

qovun va tarvuz o'simliklari o'sib rivojlanishi, hosildorligi va meva sifatiga nano- va mikrozarrahalarning ta'sirini aniqlash;

preparatlar kompleksini qo'llashning qovun va tarvuzning asosiy kasalliklariga ta'sirini aniqlash;

qovun va tarvuz ekinlarida preparatlar kompleksini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovunning "Kichkintoy" va "Oltin tepa" navlari, tarvuzning "Dilnoz" va "Shirin" navlari urug'lari, o'simliklari, mevalari, hosildorligi xizmat qildi.

Tadqiqotning predmeti sifatida qovun va tarvuz urug'lariga ekishdan oldin 4 ta biologik (Nanokremniy s.e.k. - 1 ml/l, Trixodermin n.kuk. - 1 g/kg, Mikroo'stirgich-Ko'klam-1 suyuq - 1,4 ml/kg, Mikroo'stirgich-Ko'klam-2 suyuq - 1,4 ml/kg) hamda 4 ta kimyoviy (Maksim XL 3,5% sus.k. - 5 ml/kg, Selest Top 31,2% sus.k. - 5 ml/kg, Gerkules 6% s.e.sus. - 3 ml/kg, Vial TrasT 12,9% s.sus.k. - 3 ml/kg) preparatlar bilan ishlov berishning, shuningdek o'suv davrida qo'llanilgan 3 ta o'sishni boshqaruvchi (BIO o'g'it - 1 g/l, MnO₂ - 1 g/l, Fe₂O₃ - 1 g/l) preparatlarning o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga, hosildorligiga hamda mevalar sifatiga ta'sirini o'rganish, shuningdek preparatlar kompleksini qo'llashning samarali usullarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida dala tajribalari B.J. Azimov, B.B. Azimovlarning «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish uslublari» (2002 y.); Qovun va tarvuz mevalarining biokimyoviy tahlili A.I.Yermakov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan «Методы биохимического исследования растений» (1987 y.); urug'larning unib chiqish quvvati va unuvchanligi O'zDSt 2823:2014 («Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari. Nav va ekish sifatlari. Texnik shartlar»); qovun va tarvuz urug'lari tashqi mikroflorasidagi zamburug' turlarini ajratib olishda N.A. Naumovaning «Анализ семян на грибную и бактериальную инфекцию» (1970 y.); Urug'larning antagonistik xususiyatlarini o'rganishda T.G.Adamovich, I.A.Gavrilova, Ye.Yu.Kirilchikning «Методы изучения антимикробной активности антибиотиков и антисептиков in vitro» (2021 y.) metodikalaridan foydalanilgan. Poliz ekinlari kasalliklarining rivojlanish darajasini aniqlash O'zbekiston Davlat kimyo komissiyasining «Insektitsidlar, akaritsidlar, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalari» (2004 y.) asosida olib borilgan. Olingan eksperimental ma'lumotlarga statistik ishlov berish dispersion tahlil asosida Microsoft Excel dasturi yordamida amalga oshirildi (B.A.Dospexov, 1985).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qovunning Oltin tepa va Kichkintoy navlari, tarvuzning Shirin navi urug'lariga Maksim XL 3,5% sus.k. 5 ml/kg, Selest Top 31,2% sus.k. 5 ml/kg, Nanokremniy s.e.k. 1 ml/l me'yorda qo'llanilganda laboratoriya unuvchanligi va unish quvvati oshganligi aniqlangan;

Qovunning Oltin tepa va Kichkintoy navlari, tarvuzning Shirin navi urug'lariga Maksim XL 3,5% sus.k. 5 ml/kg, Selest Top 31,2% sus.k. 5 ml/kg, Trixodermin

n.kuk. 1 g/kg va Nanokremniy s.e.k. 1 ml/l me'yorda qo'llanilganda o'simliklarning o'sib - rivojlanishi, hosildorligi va mevalar sifati yuqori bo'lgani qayd etilgan;

Qovun va tarvuz urug'lariga Maksim XL 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me'yorda ishlov berish, o'simliklarning o'suv davrida temir oksidi (Fe_2O_3) 1 g/l miqdorida bargiga purkalganida, o'simliklarning o'sib - rivojlanishi, hosildorligi va mevalar sifatiga ijobiy ta'sir etgan;

Qovun urug'lariga Maksim XL 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me'yorda ishlov berish, o'simliklar o'suv davrida temir oksidi (Fe_2O_3) 1 g/l miqdorida bargiga purkalganida, o'simliklarda kasalliklarning nisbatan kam rivojlanishi qayd etilgan; tarvuz urug'lariga Maksim XL 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me'yorida ishlov berish, o'simliklar o'suv davrida preparatlar kompleksi (BIO o'g'it - 1 g/l, MnO_2 - 1 g/l, Fe_2O_3 - 1 g/l) bargiga purkalganida o'simliklarda kasalliklarning nisbatan kam rivojlanishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qovunning Kichkintoy navi, tarvuzning Shirin navi urug'lariga ekishdan oldin Maksim XL 3,5% sus.k. 5 ml/kg, Selest Top 31,2% sus.k. 5 ml/kg, Nanokremniy s.e.k. 1 ml/l me'yorida qo'llashda, urug'larning dala unuvchanligi nazoratga nisbatan (1-2 kun) va meva yetilishi 4-8 kunga tezlashgani aniqlangan, o'simliklar yer ustki qismi yaxshi rivojlanib, kasalliklarga chidamliligi oshgan. Qovunda o'rtacha qo'shimcha 3,3-3,5 t/ga hosil, tarvuzda 3,4-3,8 t/ga qo'shimcha hosil olingan.

Qovunning Oltin tepa va Kichkintoy navlari, tarvuzning Shirin navi urug'lariga dastlab Nanokremniy 1 ml/l va Maksim XL 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me'yorida ishlov berish, o'simliklarni o'suv davrida temir oksidi (Fe_2O_3) 1 g/l miqdorida bargiga purkash natijasida o'simliklarda gullari erta ochilishi (6-9 kun), mevaning erta yetilishi (8-11 kun) qayd etilgan, o'simliklar yer ustki qismi yaxshi rivojlanib, kasalliklarga chidamliligi oshgan. Qovunning Oltin tepa navida 5,3-6,3 t/ga qo'shimcha hosil, Kichkintoy navida qo'shimcha 3,3-3,5 t/ga hosil, tarvuzning Shirin navida 3,5-4,1 t/ga qo'shimcha hosil olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Ilmiy va amaliy ishlarida qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, tajribalarning uslubiy jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi, ishda klassik va zamonaviy uslublarning qo'llanilganligi, har yili Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Uslubiy komissiyasi va Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining aprobat siya komissiyasi tomonidan yuqori baholanganligi, ilmiy-tadqiqotlar natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda tinglanib, muhokama etilganligi hamda mahalliy va xorijiy ilmiy jurnallarda, konferensiya to'plamlarida chop etilganligi, olingan natijalarga statistik ishlov berilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati – qovun va tarvuz urug'lariga va o'simliklariga preparatlar kompleksini qo'llanilishning usullari aniqlanib, urug'lar unib chiqishi, o'simliklarning o'sib-rivojlanishi, hosildorlik, meva sifati hamda kasalliklarga ta'sirini aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qovun, tarvuz urug'lariga ekishdan oldin Maksim XL 3,5% sus.k. 5 ml/kg, Nanokremniy s.e.k. 1 ml/l me'yorida ishlov

berishda urug'larning erta unib chiqishi; o'simliklar o'suv davrida temir oksidi (Fe_2O_3) 1 g/l miqdorida bargiga purkalganida o'simliklarning jadal o'sib-rivojlanishi, hosildorligi oshib, mahsulot sifatining yaxshilanishi va kasalliklarga chidamliligiga ijobiy ta'siri bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qovun, tarvuz urug'lari va o'simliklarida preparatlar kompleksini qo'llashning hosildorlikka ta'siri bo'yicha tadqiqotlar natijasida:

Sirdaryo viloyati sharoitida qovunning Kichkintoy va Oltin tepa navlari urug'lariga ekishdan oldin ishlov berishda mikrobiologik preparat (Trixodermin) dan 1 g/kg, Maksim XL 3,5% preparatidan esa 5 ml/kg me'yorida qo'llash taklif etilgan va viloyatining Xovos va Boyovut tumanlaridagi fermer xo'jaliklarining jami 1,86 gektar maydonida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada qovunning Kichkintoy va Oltin tepa navlaridan qo'shimcha 3,1-3,8 t/ga hosil olishga erishilgan;

Sirdaryo viloyati sharoitida qovunning Kichkintoy va Oltin tepa navlari urug'lariga dastlab biologik preparat (Nanokremniy) dan 1 ml/l, Maksim XL 3,5% kimyoviy preparatidan 5 ml/kg miqdorida ishlov berish, o'simliklarning o'suv davrida nano- va mikrozarra (Fe_2O_3 (temir oksidi)) dan 1 g/l me'yorida bargiga purkash usuli taklif etilgan va viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada qovunning ushbu navlaridan 4,2-4,8 t/ga qo'shimcha hosil olishga erishilgan;

ushbu preparatlar (Nanokremniy 1 ml/l + Maksim XL 3,5%) bilan qovun urug'lariga ishlov berish usuli Jizzax viloyati Zarbdor tumanidagi fermer xo'jaliklarining jami 1,32 gektar, Andijon viloyati Paxtaobod va Oltinko'l tumanlaridagi fermer xo'jaliklarining jami 1,58 gektar maydonida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada qovundan Jizzax viloyati sharoitida qo'shimcha 2,9-3,3 t/ga, Andijon viloyati sharoitida esa qo'shimcha 2,8-3,9 t/ga hosil olish imkonini bergan;

Qashqadaryo viloyati sharoitida tarvuzning Shirin navi urug'lariga ekishdan oldin ishlov berishda mikrobiologik preparat (Trixodermin) dan 1 g/kg, Maksim XL 3,5% preparatidan esa 5 ml/kg me'yorida qo'llash taklif etilgan va viloyatining Kitob va Shaxrisabz tumanlaridagi fermer xo'jaliklarining jami 1,86 gektar maydonida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada qovunning Kichkintoy va Oltin tepa navlaridan qo'shimcha 3,8-4,2 t/ga hosil olishga erishilgan;

Qashqadaryo viloyati sharoitida tarvuzning Shirin navi urug'lariga dastlab biologik preparat (Nanokremniy) dan 1 ml/l, Maksim XL 3,5% kimyoviy preparatidan 5 ml/kg miqdorida ishlov berish, o'simliklarning o'suv davrida nano- va mikrozarra (Fe_2O_3 (temir oksidi)) dan 1 g/l me'yorida bargiga purkash usuli taklif etilgan va viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-

03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada tarvuzning ushbu navidan 4,2-4,8 t/ga qo'shimcha hosil olishga erishilgan;

ushbu preparatlar (Nanokremniy 1 ml/l + Maksim XL 3,5%) bilan tarvuz urug'lariga ishlov berish usuli Samarqand viloyati Oqdaryo va Toyloq tumanlaridagi fermer xo'jaliklarining jami 1,12 gektar maydonida amaliyotga joriy qilingan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 9-apreldagi №05/06-03-132-son ma'lumotnomasi). Natijada tarvuzning Shirin navidan Samarqand viloyati sharoitida qo'shimcha 2,9-3,3 t/ga, Andijon viloyati sharoitida esa qo'shimcha 4,8-5,2 t/ga hosil olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari yillik hisobotlari (2019-2024 yy.) SPEvaKITI ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dala tajribalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib, ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqotlari bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy va 3 tasi respublika ilmiy jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, xalqaro konferensiyalarda 4 ta va respublika konferensiyalarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga, ilmiy-tadqiqotlar rejalariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlar sharhi va mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar, tadqiqot natijalarining chop etilganligi, dissertatsiyaning hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovun va tarvuz morfobiologiyasi, urug'lari va o'simliklariga ishlov berishning hosildorlikka ta'siri (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil etilib, qovun va tarvuz urug'lariga ekishdan oldin biologik, kimyoviy va mikroelementlar bilan ishlov berish, shuningdek o'simliklariga o'sishni boshqaruvchi turli preparatlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb masala bo'lib, ish oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish bo'yicha maxsus dala va ishlab chiqarish tajribalari o'tkazish zarurligi qayd etilgan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish sharoiti, obyekti va uslublari”** deb

nomlangan ikkinchi bobida tajribalar o'tkazilgan joy, uning tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqotlar obyekti, yo'nalishlari hamda uslublari keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda tajribada qovun va tarvuz yetishtirish agrotexnologiyasi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovun va tarvuz urug‘lariga ishlov berishning o‘simliklar rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobida qovun va tarvuz urug‘lariga biologik va kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilib, laboratoriya sharoitida urug‘larning ustki mikroflorasi, asosiy zamburug‘larga qarshi antagonistik ta’siri va urug‘larning unuvchanligiga ta’siri bo‘yicha laboratoriya tajribalari natijasi keltirilgan. Shuningdek, qovun va tarvuz urug‘lariga biologik, kimyoviy zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlov berilib, dala unuvchanligi, o‘simlik o‘sib rivojlanishi, hosildorligi, meva biokimyoviy tarkibi bo‘yicha tadqiqot natijalari batafsil bayon etilgan.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha laboratoriya sharoitida turli ozuqa muhitida (gpa, kaa, chapik agar) qovun va tarvuz urug‘lari ustki mikroflorasi o‘rganilganida bakteriya va zamburug‘lar mavjudligi aniqlangan. Qovun va tarvuz urug‘lariga mikrobiologik Mikroo‘stirgich-Ko‘klam-1 suyuq, 1,4 ml/kg, Mikroo‘stirgich-Ko‘klam-2 suyuq, 1,4 ml/kg, Trixodermin n.kuk. 1 g/kg, Selest Top 31,2 % sus.k. 5 ml/kg, Gerkules 6 % s.e.sus. 3 ml/kg, Vial TrasT 12,9 % s.sus.k. 3 ml/kg me’yorida ishlov berilib, urug‘lar ustki mikroflorasi o‘rganilganida, bakteriyalardan – Bacillus Pseudomonas, zamburug‘lardan Aspergillus, Penicillium oilasiga mansub mikroorganizm turlari aniqlangan. Kimyoviy Maksim XL preparati 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me’yorida qo‘llanilganda esa barcha mikroorganizmlarga chidamliligi kuzatilgan va zamburug‘larga qarshi eng yuqori antagonistik (13,0-14,5 mm.) ta’sir etgan.

Laboratoriya sharoitida qovunning Kichkintoy, tarvuzning Shirin navi urug‘lariga biologik va kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilib, unuvchanligi o‘rganilganida, qovun urug‘lariga Trixodermin, Selest Top bilan ishlov berilgan variantda, urug‘larning unish quvvati nazorat-1 (quruq urug‘lar) ga nisbatan 11-14 % ga, nazorat-2 (suvda ivitilgan urug‘lar) ga nisbatan 6-9 % ga oshgani kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Laboratoriya sharoitida qovun va tarvuz urug‘lariga qo‘llanilgan vositalarining urug‘larining unish quvvati va unuvchanligiga ta’siri (2019-2020 yillar).

Nanokremniy va Maksim XL variantida esa bu farqlar 21-31 %, va 16-26 % oshgani qayd etilgan. Urug'larning unuvchanligi preparatlar qo'llanilgan variantlarda 97-98 % gacha bo'lib, nazorat-1 ga nisbatan 3-4 % ga, nazorat-2 ga nisbatan 1-2 % ga ustunligi namoyon bo'lgan. Tarvuz urug'lariga Trixodermin, Selest Top bilan ishlov berilgan variantda, urug'larning unish quvvati nazorat-1 ga nisbatan 7-9 % ga, nazorat-2 ga nisbatan 3-5 % ga ustun bo'lgani qayd etilgan. Nanokremniy va Maksim XL variantida esa bu farqlar 11-16 %, va 7-12 % bo'lgani qayd etilgan. Urug'larning unuvchanligi preparatlar qo'llanilgan variantlarda 97-98 % gacha bo'lib, nazorat-1 ga nisbatan 4-5 % ga, nazorat-2 ga nisbatan 2-3 % ga ustunligi aniqlangan.

Qovun urug'larida sinalgan preparatlar, nazoratda urug'larning unib chiqishi 8 kun davom etib, kimyoviy vositalar Maksim XL, Selest Top, biologik preparatlardan Trixodermin va Nanokremniy bilan ishlov berilganida, urug'larning dala unuvchanligi nazoratdan 1-2 kun erta, otalik gullarining ochilishi 2-6 kun, onalik gullarining ochilishi 3-6 kun, 1 chi meva yetilishi 2-8 kunga tezlashgani kuzatilgan.

Zararsizlantiruvchi vositalarning qovun o'simliklarining biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilganida, asosiy poya uzunligi bo'yicha Trixodermin, Selest Top qo'llanilib, nazorat-1 bilan taqqoslanganda 3,6-5,6 sm uzun, nazorat-2 ga nisbatan 2,2-4,2 sm uzun bo'lgani aniqlangan, Maksim XL va Nanokremniy qo'llanilganda nazorat-1 ga nisbatan 7,3-10,3 sm, nazorat-2 ga nisbatan 8,9-5,9 sm uzun bo'lgani qayd etilgan. Yon shoxlar uzunligi Maksim XL va Nanokremniy variantlarida nazorat-1 ga nisbatan 30,3-42,9 sm uzun, barglar soni 9-12 donaga ko'p, nazorat-2 ga nisbatan 38,1-50,7 sm uzun, barglar soni 6-9 donagacha oshgani kuzatilgan. Trixodermin, Selest Top variantlarida bu ko'rsatkichlar nazorat-1 ga nisbatan 15,1-14,5 sm uzun, barglar soni 6 donaga, nazorat-2 ga nisbatan 22,3-22,9 sm, barglar soni 3 donaga ko'p bo'lgani aniqlangan.

Qovunning asosiy kasalliklarining rivojlanishiga zararsizlantiruvchi vositalarning ta'siri natijalariga ko'ra urug'larga Trixodermin, Nanokremniy, Selest Top bilan ishlov berilganida nazorat-1 va nazorat-2 ga nisbatan ildiz chirishi, fuzarioz kasalliklariga qarshi ushbu preparatlar kuchli himoya xususiyatiga ega ekanini tasdiqlagan, eng yuqori natija Maksim XL qo'llanilganda kuzatilib, kasalliklardan ildiz chirishi nazorat-1 da 19,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, Maksim XL da nazorat-1 ga nisbatan 16,7 % kam, va nazorat-2 ga nisbatan esa 17,4 % kam zararlangani aniqlandi. Shuningdek, fuzarioz so'lish kasalligi nazorat-1 da 19,6 %, nazorat-2 da esa 18,4 % zararlanib, Maksim XL da 2,5 % ni tashkil etgan.

Qovun urug'lariga qo'llanilgan zararsizlantiruvchi vositalarning ikki yillik o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichlariga ko'ra, umumiy hosildorlik nazorat-1 da 19,5 t/ga, tovarbop hosil 16,6 t/ga bo'lib, Trixodermin, Nanokremniy, Selest Top, qo'llanilganda umumiy hosil nazorat-1 ga nisbatan 2,9-3,3 t/ga yuqori, nazorat-2 nisbatan esa 2,5-2,9 t/ga yuqori bo'lgan, tovarbop hosilda bu farqlar tegishli 3,8-4,4 va 2,8-3,4 t/ga yuqori bo'lgan (1-jadval).

Qovunning Kichkintoy navi urug‘lariga qo‘llanilgan zararsizlantiruvchi vositalarning hosildorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri (2021-2022 yillar)

Variantlar	Qo‘llash me’yori	Mevaning o‘rtacha vazni, kg	Umumiy hosildorlik, t/ga				Tovarbop hosil, t/ga		
			2021 y.	2022 y.	o‘rtacha	nazoratga nisbatan, %	2021 y.	2022 y.	o‘rtacha
Nazorat-1 (ishlov berilmagan)	-	0,8	19,8	19,2	19,5	100,0	16,7	16,5	16,6
Nazorat-2 (suvda ivitilgan)	-	0,9	20,1	19,6	19,9	102,5	17,2	17,1	17,6
Nanokremniy	1 ml/l	1,0	23,0	22,6	22,8	116,9	19,5	19,8	21,0
Trixodermin	1 g/kg	0,9	22,8	22,4	22,6	115,9	18,5	18,4	20,8
Maksim XL	5 ml/kg	1,0	23,2	22,8	23,0	117,9	19,1	18,9	21,2
Selest Top	5 ml/kg	0,9	22,6	22,2	22,4	114,9	18,9	18,2	20,4
EKF ₀₅			2,5	2,7			1,5	1,3	
Sx%			1,8	1,8			1,2	1,1	

Eng yaxshi natija Maksim XL qo‘llanilganda kuzatilib, nazorat-1 ga nisbatan 3,5 t/ga yuqori, nazorat-2 ga nisbatan esa 3,1 t/ga ga ustunlik qilgan, tovarbop hosilda bu farqlar tegishli 4,6 t/ga va 3,6 t/ga bo‘lgani qayd etilgan.

Tarvuz urug‘lariga Maksim XL, Selest Top, biologik preparatlardan Trixodermin va Nanokremniy bilan ishlov berilganida, urug‘larning dala unuvchanligi nazoratdan 1-2 kun erta, otalik va onalik gullarining ochilishi 2-4 kun, 1 chi meva yetilishi 2-5 kunga tezlashgani kuzatilgan. Zararsizlantiruvchi vositalarning qovun o‘simliklarining biometrik ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganilganda asosiy poya uzunligi bo‘yicha Trixodermin, Maksim XL, Selest Top qo‘llanilib nazorat-1 bilan taqqoslanganda 4,0-12,2 sm uzun, nazorat-2 ga nisbatan 1,2-9,4 sm uzun bo‘lgani aniqlangan, yon shoxlar uzunligi bo‘yicha bu farqlar tegishli 9,4-74,7 sm va 1,6-66,9 sm uzun bo‘lgan, barglar soni bo‘yicha esa 3-16 dona va 2-15 donagacha ko‘p bo‘lgan. Nanokremniy biologik preparati qo‘llanilganda asosiy poya uzunligi nazorat-1 dan 18,5 sm, nazorat-2 dan 15,7 sm yuqori, yon shoxlar uzunligi bo‘yicha bu farqlar tegishli 148,4 sm va 140,6 sm ga uzun bo‘lganligi aniqlangan. Barglar soni 1-nazoratga nisbatan 28 donaga, 2-nazoratga nisbatan esa 27 donaga ortganligi aniqlandi.

Tarvuz urug‘lariga qo‘llanilgan preparatlarning asosiy kasalliklar rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinganida, ildiz chirish kasalligi rivojlanishi (3,0-4,1 %) Trixodermin, Nanokremniy bilan ishlov o‘tkazilganda nazorat-1 ga nisbatan 13,0-14,1 % past, nazorat-2 ga nisbatan esa 12,2-11,1 % ga kam bo‘lgan. Fuzarioz kasalligi bu variantlarda nazorat-1 dan 12,9-20,2 % kam, nazorat-2 dan 7,2-14,5 % kamaygani aniqlangan. Ijобiy natijalar Maksim XL va Selest Top qo‘llanilganda kuzatilib, ildiz chirish kasalligi nazorat-1 dan 14,3-14,9 % kam, nazorat-2 dan 13,0-12,4 % kam zararlangan. Fuzarioz rivojlanishi bo‘yicha bu farqlar 22,1-22,8 % kamroq va minimal zararlanish 16,4-17,1 % ni tashkil etdi.

Tarvuz urug'lariga qo'llanilgan preparatlarning hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri natijalariga ko'ra, Trixodermin, Selest Top va Maksim XL qo'llanilganda nazorat-1 dan 2,7-3,3 t/ga ortiq, nazorat-2 dan 1,3-1,9 t/ga yuqori bo'lgan, tovarbop hosilda bu farqlar 3,9-4,9 t/ga yuqori, 2,2-3,2 t/ga oshgan (2-jadval).

2-jadval.

Tarvuzning Shirin navi urug'lariga qo'llanilgan zararsizlantiruvchi vositalarning hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri (2021-2022 yillar)

Variantlar	Qo'llash me'yori	Mevalarining o'rtacha vazni, kg	Umumiy hosildorlik, t/ga				Tovarbop hosil, t/ga		
			2021 y.	2022 y.	o'rtacha	nazoratga nisbatan, %	2021 y.	2022 y.	o'rtacha
Nazorat-1 (ishlov berilmagan)	-	4,3	24,3	26,4	25,4	100,0	20,7	22,8	21,8
Nazorat-2 (suvda ivitilgan)	-	4,5	25,8	27,8	26,8	105,5	22,5	24,4	23,5
Nanokremniy	1 ml/l	5,3	28,1	29,9	29,0	114,2	25,5	27,6	26,6
Trixodermin	1 g/kg	4,8	26,9	29,3	28,1	110,6	24,9	26,5	25,7
Maksim XL	5 ml/kg	5,0	27,6	29,7	28,7	113,0	25,7	27,6	26,7
Selest Top	5 ml/kg	4,9	27,4	28,9	28,2	111,0	25,3	26,4	25,9
EKF ₀₅			1,2	1,5			2,5	2,2	
Sx%			0,6	0,8			1,6	1,5	

Ijobiy ko'rsatkichlar Nanokremniy qo'llanilganda kuzatilib, hosildorlik nazorat-1 dan 3,6 t/ga yuqori, nazorat-2 dan 2,2 t/ga oshganligi qayd etildi. Tovarbop hosilda esa bu farqlar 4,8 t/ga va 3,1 t/ga ga yuqori bo'lgan.

Qovun mevalarining biokimyoviy tahlili natijalariga ko'ra, Trixodermin, Maksim XL va Selest Top variantlarida quruq modda nazorat-1 ga nisbatan 0,2-0,4 % oshiq, nazorat-2 ga nisbatan esa 0,1-0,2 % ustunligi aniqlangan. Umumiy qand miqdori nazorat-1 dan 0,1-0,3 % ga yuqori, nazorat-2 dan 0,1 % ga ortiq, askorbin kislotasi nazorat-1 ga nisbatan 0,3-0,5 mg/% yuqori, nazorat-2 ga nisbatan esa 0,1-0,3 mg/% ga ko'p bo'lgan, nitratlar miqdori bo'yicha bu farqlar tegishli 0,1-0,5 mg/kg va 0,1-0,3 mg/kg ga kamaygani qayd etilgan. Yuqori natija Nanokremniy bilan ishlov o'tkazilganda kuzatilib, meva tarkibidagi eruvchan quruq modda nazorat-1 dan 0,6 % yuqori, nazorat-2 dan 0,4 % ko'p bo'lgan, umumiy qand miqdori bo'yicha bu farqlar 0,3 va 0,5 % ustunlik qilgan. Askorbin kislotasi nazorat-1 ga nisbatan 0,7 mg/%, nazorat-2 ga nisbatan esa 0,9 mg/% ortiq bo'lgan. Nitratlar miqdori nazorat-1 dan 0,4 mg/kg kam, nazorat-2 dan esa 0,2 mg/kg gacha kamaygani qayd etilgan.

Tarvuz mevalarining laboratoriya tahlili natijalariga ko'ra, Trixodermin, Maksim XL va Selest Top qo'llanilganda tarvuz mevalari tarkibidagi eruvchan quruq modda nazorat-1 dan 0,1-0,4 %, nazorat-2 dan esa 0,1-0,3 % yuqori bo'lgan, umumiy qand miqdori bo'yicha bu farqlar tegishli 0,2-0,4 % va 0,2 % ustunlik qilgan. Ijobiy natija Nanokremniy qo'llanilganida kuzatilib, eruvchan quruq modda nazorat-1 dan 0,7 %, nazorat-2 dan esa 0,6 % yuqori bo'lgan, umumiy qand miqdori bo'yicha

bu farqlar tegishli 0,4 % va 0,2 % yuqori bo'lgan. Askorbin kislotasi Trixodermin qo'llanilganida nazorat-1 dan 0,2 mg/% ko'p, Nanokremniy va Maksim XL variantlarida nazorat-1 dan 1,2-1,6 mg/%, nazorat-2 dan esa 1,0-1,4 mg/% ortiq bo'lgan, nitratlar miqdori bo'yicha bu farqlar tegishli 1,3 va 0,7 mg/kg kam bo'lgan. Trixodermin va Selest Top variantlarida nitratlar miqdori nazorat-1 dan 0,2-0,3 mg/kg kam, nazorat-2 dan 0,3-0,4 mg/kg kamaygani aniqlangan.

Qovun urug'lariga ishlov berilgan preparatlarning iqtisodiy samaradorligi natijalariga asosan, nazorat variantida barcha xarajatlar 23984,8 so'mni tashkil qilib, hosildorlik 19,5 t/ga bo'lgan. 1 gektardan olingan sof foyda 30615,1 ming so'm, rentabellik darajasi esa 128 % bo'lgani qayd etilgan. Maksim XL, Selest Top, Trixodermin va Nanokremniy variantlarida hosildorlik 2,9-3,5 tonnaga yuqori bo'lib, nazoratga nisbatan olingan sof daromad esa 8120-9800 ming so'm va rentabellik 154-159 % bo'lgan. Tarvuz urug'lariga Maksim XL, Selest Top, Trixodermin va Nanokremniy qo'llanilganida, hosildorlik 3-3,8 tonnaga oshgani qayd etilgan, nazoratga nisbatan olingan sof daromad esa 6000,0-7600,0 ming so'mgacha yuqori, va rentabellik 117-122 foizni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Qovun va tarvuz ekinlarida preparatlar kompleksini qo'llashning hosildorlikka ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida qovunning Kichkintoy va Oltin tepa navlari, tarvuzning Shirin navi urug'lariga biologik Nanokremniy s.e.k. 0,1 ml/l, kimyoviy Maksim XL preparati 3,5 % sus.k. 5 ml/kg me'yorida ishlov berilib, o'simliklarni o'suv davrida (3-4 chin barg chiqargan) BIO o'g'it (NPK+mikroelementlar) - 1 g/l, MnO₂ (marganes dioksidi)-1 g/l, Fe₂O₃ (temir oksidi) - 1 g/l me'yorida bargidan 2 marta oziqlantirilganida dala unuvchanligi, o'simlik o'sib rivojlanishi, hosildorligi, meva biokimyoviy tarkibi bo'yicha tadqiqot natijalari batafsil bayon etilgan.

Qovunning Kichkintoy navi urug'lariga va o'simliklariga kompleks preparatlar sinalganida urug'lar nazorat-1 variantiga nisbatan 1-2 kun oldin unib chiqqan. Maysalash – otalik gullarining ochilishi nazorat - 1 ga nisbatan 2-4 kun, nazorat - 2 ga nisbatan 1-2 kunga erta bo'lgani qayd etilgan. Maysalash – onalik gullari ochilishida bu farqlar tegishli: 2-6 kun va 1-4 kunni tashkil etib, mevalash davrida nazorat-1 ga nisbatan 4-8 kun, nazorat-2 ga nisbatan 1-5 kunga tezlashgan.

Tajribalarimizda asosiy poya uzunligi (135,0-146,2 sm) nazorat - 1 ga nisbatan 19-42,5 sm, nazorat - 2 ga nisbatan 14,3-35,5 sm ustun, yon shoxlar uzunligi nazorat - 1 ga nisbatan (382,9-521,3 sm) 116,7-255,1 sm, nazorat - 2 ga nisbatan 111,8-250,2 sm uzun va barglar soni (122-166 dona) nazorat - 1 ga nisbatan 33-70 donaga, nazorat - 2 ga nisbatan 29-58 donaga oshgani qayd etilgan. Kasalliklarning rivojlanishi esa bio o'g'it va marganes dioksidi (MnO₂) variantlarida ildiz chirishi (11,4-11,6 %) 4,5-4,7 % ga, temir oksidi (Fe₂O₃) qo'llanilgan variantda ildiz chirishi (7,2 %) 8,9 % gacha kamaygani aniqlangan. Nano va mikrozarrahalı preparatlar qo'llangan variantlarda fuzarioz kasalligi bilan zararlanishi 7,3-11,9 % ga kamaygan.

Kichkintoy navida urug'larga va o'simliklariga kompleks preparatlar qo'llanilganida, o'simliklar yer ustki vegetativ qismi o'sishi natijasida, fotosintez jarayoniga ijobiy ta'sir etib, umumiy hosildorlik oshganligi aniqlangan. Nano va mikrozarrahalı preparatlar qo'llanilishi natijasida umumiy hosildorlik nazorat - 1 ga

nisbatan 1,6-3,7 t/ga gacha nazorat - 2 ga nisbatan 1,1-2,5 t/ga gacha oshgan, tovarbop hosilda esa bu farqlar 2,7-5,1 t/ga, va 0,7-3,1 t/ga ga yuqori bo'lgan.

Qovunning Oltin tepa navi urug'lari unib chiqishi kompleks preparatlar qo'llanilganida 1-2 kunga erta, Maysalash – otalik gullarining ochilishi, urug'larga nanokremniy, o'simliklarga bio o'g'it va mikrozarrachalar qo'llanilganda nazorat-1 ga nisbatan 6-8 kun, nazorat-2 dan 4-6 kunga erta gullashi qayd etildi. Maysalash – onalik gullarining ochilishida ushbu ko'rsatkichlar tegishli nazorat-1 variantidan 6-9 kun, nazorat-2 dan 4-7 kuni tashkil etdi. Qovun urug'lariga va o'simliklariga kompleks preparatlar qo'llanilganida 1 meva yetilishi 84-89 kunga to'g'ri kelib, nazorat-1 ga nisbatan 7-11 kun, nazorat-2 ga nisbatan esa 3-8 kunga tezlashgani aniqlangan. O'simliklarning poya qalinligi, yon shoxlar soni bo'yicha ko'rsatkichlar nazoratga nisbatan yuqori bo'lib, asosiy poya uzunligi (125,4-162,0 sm) nazorat - 1 ga nisbatan 16-51,7 sm, nazorat - 2 ga nisbatan 10,2-42,4 sm ustun, yon shoxlar uzunligi nazorat - 1 ga nisbatan (440,0-585,4 sm) 38,6-184,0 sm, nazorat - 2 ga nisbatan 22,4-167,8 sm uzun va barglar soni (110-141 dona) nazorat - 1 ga nisbatan 7-38 donaga, nazorat - 2 ga nisbatan 5-37 donaga oshgani qayd etilgan.

O'simliklarga kompleks preparatlar qo'llanilganida kasalliklar rivojlanishi bo'yicha ildiz chirishi 3 % ga kam zararlangani qayd etildi. Fuzarioz kasalligi bilan zararlanishi o'simliklar bio o'g'it va marganes dioksidi (MnO_2) qo'llanilganida nazoratga nisbatan (14,5-12,5 %) 13-15 foizgacha; temir oksidi (Fe_2O_3) qo'llanilgan variantda esa 20,5-13,0 % gacha kamaygani aniqlangan.

Qovunning Oltin tepa navida kompleks preparatlar qo'llanilishi natijasida nazorat-1 ga nisbatan hosildorlik 5,2-6,3 t/ga, nazorat - 2 ga nisbatan 3,7-4,8 t/ga qo'shimcha hosil olingan (3-jadval).

3-jadval.

Qovunning Oltin tepa navi urug'lariga va o'simliklariga qo'llanilgan kompleks preparatlarning hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri (2023-2024 yillar)


Variantlar	Mevaning o'rtacha vazni, kg	Umumiy hosildorlik, t/ga				Tovarbop hosil, t/ga		
		2023 y.	2024 y.	o'rtacha	nazoratga nisbatan, %	2023 y.	2024 y.	o'rtacha
Nazorat-1 (suvda ivitilgan)	2,7	24,2	24,6	24,4	100,0	20,8	21,5	21,2
Nazorat-2 (Nanokremniy 0,1 g/l)	2,9	25,6	26,2	25,9	106,1	22,7	22,8	22,8
Nanokremniy 0,1 g/l + BIO o'g'it - 1 g/l	3,3	29,7	30,1	29,9	122,5	27,6	28,2	27,9
Nanokremniy 0,1 g/l + MnO_2 - 1 g/l	3,3	29,3	29,9	29,6	121,3	27,4	28,3	27,9
Nanokremniy 0,1 g/l + Fe_2O_3 - 1 g/l	3,6	30,0	31,3	30,7	125,8	28,3	29,8	29,1
EKF ₀₅		4,2	4,0			5,0	5,7	
Sx%		2,6	2,4			2,8	3,1	

Tovarbob hosilda esa bu farqlar 6,7-7,9 t/ga, va 4,9-6,3 t/ga ga yuqori bo'lgan.

